

Fe'l so'z turkumining grammatik xususiyatlari: tuzilishi, nisbatlari va zamon kategoriyalari

Dinora Nurali qizi O'ktamova
Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: quyida keltiriladigan maqolada fe'l so'z turkumining o'zbek tilidagi xususiyatlari to'g'risida bayonot qilinadi.

Kalit so'zlar: O'zbek tili grammatikasi, o'timli fe'l, o'timsiz fe'l, fe'l nisbatlari, zamon, bo'lishsiz fe'l, ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi

Grammatical features of the verb phrase: structure, relations and tense categories

Dinora Nurali kizi Uktamova
Kattakurgan State Pedagogical Institute

Abstract: the article below presents a statement about the features of the verb phrase in the Uzbek language.

Keywords: Uzbek grammar, transitive verb, intransitive verb, verb relations, tense, intransitive verb, auxiliary verb conjunction

KIRISH

Har bir til tizimi turli xil so'z turkumlaridan iborat. So'z turkumlari bir qancha bo'lishidan qat'iy nazar, fe'l ular orasida eng muhim o'rin tutadiganidir. Darhaqiqat, boshqa so'z turkumlari sifatni, narsa, hodisalarni aks ettirsa, fe'l harakat, holat, jarayonni namoyon etadi. Shunday ekan, fe'l gapning mazmunini ifodalashda ham, grammatik tuzilishda ham eng muhim unsurlaridan biri hisoblanadi.

So'zlar lug'aviy-leksik ma'nolari, gap tarkibida bajaradigan sintaktik vazifalariga, morfologik xususiyatlariga ko'ra bir qancha turlarga bo'linadi va bu so'z turkumlari deyiladi.

O'zbek tilida so'z turkumlari 12 ta ular 3 ta katta asosiy guruhga bo'linadi va ular quyidagilar:

1. *Mustaqil so'z turkumlari:* Ot, sifat, son, fe'l, olmosh, ravish
2. *Yordamchi so'z turkumlari:* Bog'lovchi, ko'makchi, yuklama
3. *Oraliqdagi so'zlar:* Modal, undov, taqlid

Yordamchi soʻz turkumlari maʼlum bir maʼno anglatmaydi, lugʻaviy maʼno ham kasb etmaydi. Ular gaplarni va soʻzlarni bir-biriga bogʻlaydi, gapga qoʻshimcha maʼno yuklaydi. Bir soʻz bilan aytganda, yordamchi soʻzlar gaplarning yasashida alohida oʻrin tutadi.

Mustaqil soʻz turkumlari esa lugʻaviy-leksik maʼnoni ifodalaydi, gapda sintaktik vazifani bajaradi, maʼlum oʻziga tegishli boʻlgan savollarga javob beradi, bundan tashqari soʻz yasash xususiyatiga ham ega boʻladi. Soʻz turkumlari ichida eng asosiy boʻlgan turkum bu - feʼl deyilgan. Negaki, feʼl gapning markaziy qismi boʻlib, uning maʼnosini ifodalaydi.

Feʼl soʻz turkumi oʻzbek tili grammatikasidagi eng katta soʻz turkumi hisoblanib, u harakat va holatni anglatib keladi. U umumiy tarzda “nima qilmoq?” “nima boʻlmoq?” soʻroqlari orqali topiladi va bundan tashqari ushbu soʻroqlar feʼlning turli xil grammatik kategoriyalarini qabul qilgan holda bir necha xil turda ham kelishi mumkin. Masalan: “nima qiladi?”, “nima qilmoqchi?”, “nima qildi?”, “nima qilgan?”.

Feʼllar grammatik hamda leksik xususiyati va maʼno anglatish, anglatmasligiga koʻra 2 turga boʻlinadi:

1. *Mustaqil feʼllar*
2. *Yordamchi feʼllar*

Mustaqil feʼl deyilganda maʼlum bir atash maʼnosiga ega, gap tarkibida mustaqil holatda gap boʻlagi vazifasida kela oladigan va yuqorida koʻrsatilgan soʻroqlardan biriga javob boʻladigan feʼllar nazarda tutiladi. Misol uchun: Men uyda yolgʻiz oʻzim ovqat tayyorladim.

Yordamchi feʼllar leksik maʼnoga ega boʻlmaydi, gapda mustaqil gap boʻlagi vazifasida kela olmaydi va soʻz turkumi soʻroqlariga javob boʻla olmaydi. Odatda yordamchi feʼllar gapda har xil yordamchi vazifada keladi.

Yordamchi feʼllarning 3 xil turi mavjud:

- a) *Yordamchi feʼllar*: qil, et, ayla, boʻl;
- b) *Koʻmakchi feʼllar*: odatda bu feʼllar oʻzidan oldingi mustaqil holatda keladigan feʼllarga qoʻshilib, koʻmakchi feʼlli soʻz qoʻshilmasini keltirib chiqaradi. Misol uchun: eshitib yotmoq, yugurib bormoq

- c) *Toʻliqsiz feʼllar*: edi, emish, ekan, emas kabi feʼllardir. Bu feʼllar oʻz vazifasi va leksik maʼnosini yoʻqotgan feʼllar hisoblanadi.

Harakat va holat feʼllari. Feʼllar bajarilayotgan ishning xususiyatiga va qay tarzda bajarilishiga qarab 2 guruhga boʻlinadi.

Harakat feʼli - bajaruvchi tomonidan bajariladigan, yaʼni shaxs va narsalarning jismoniy harakati natijasida yuzaga keladigan feʼldir. Misol uchun: oʻqimoq, kulmoq, sakramoq.

Holat fe'li - insonlarning ichki kechinmalari, hissiyotlari, shu bilan birgalikda narsalarning bir xususiyatdan ikkinchi xususiyatga o'tishida foydalaniladigan fe'ldir. Misol uchun: sevmok, ega bo'lmoq, isimoq, sarg'aymoq, erimoq.

Fe'llar sintaktik jihatdan obyekt talab qilish yoki obyekt talab qilmasligiga ko'ra 2 ga bo'linadi:

a) O'timli fe'l - fe'l tushum kelishikli (-ni) so'zni talab qilsa, u o'timli fe'l hisoblanadi.

Misol uchun: mevani yedi, daftarni ochdi, kiyimni kiydi, xatni yozdi.

b) O'timsiz fe'l - tushum kelishigidan va qaratqich kelishigidan boshqa kelishikdagi (bosh, o'rin-payt, jo'nalish, chiqish) so'zlar bilan bog'lana oladigan fe'llar o'timsiz fe'llardir.

Misol uchun: atrofga qaradi, onam uxladi, Londondan jo'nab ketdi.

O'timli fe'llarga nisbat kategoriyasidan o'zlik va majhul nisbat qo'shimchalari qo'shilgan taqdirda o'timli fe'l o'timsiz fe'lga o'zgaradi.

Misol uchun: kiyimni kiymoq - ichkarida kiyinmoq, xatni yozmoq -daftarda yozilgan, kitobni o'qimoq - kitob o'qilgan.

Harakat va holatning bajarilish yoki bajarilmasligiga ko'ra 2 turda bo'ladi:

a) bo'lishli fe'llar

b) bo'lishsiz fe'llar

Bo'lishli fe'llar harakat va holatning bajarilishini, mavjudligini yoki tasdiq holatida ekanligini bildiradi. Bo'lishlilik shaklining ma'lum tarzda qo'shimchasi mavjud emas.

Misol uchun: o'qidim, boryapman, sayr qildi, qaradi, yozmoqda. "Men tong sahardan sayr qilish uchun uyg'ondim".

Fe'ning bo'lishsiz shakli esa harakat va holatning inkor shaklini bildiradi, ya'ni bunda biror bir harakat bajarilmaydi. Qo'shimchasi: "-ma" hisoblanadi.

Misol uchun: qilmasin, kelma, qo'yma, kulma, yozma. "Asal har kuni ukasiga xonasini tartibsiz holatda qoldirmasligini aytar edi".

- ma bo'lishsizlik qo'shimchasi ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi bilan birgalikda foydalaniladi.

Misol uchun: aytib o'tirma, borib bermadi, yozib qo'yma, kela ko'rma.

Fe'llar odatda bunday holatda kelsa, harakat yoki holatning faqat 1 marta inkor qilinganligini bildiradi.

Bundan tashqari bo'lishsizlik qo'shimchasini yetakchi fe'lga ham qo'shib kelish holatlarini kuzatish mumkin.

Misol uchun: gapirmay qo'ydi, kelmay ketdi, yozmay qo'ydi, o'qimay o'tib ketdi.

Aytib o'tish joizki, agar -ma qo'shimchasi yetakchi fe'l yoki ko'makchi fe'lga qo'shilgan taqdirda, u inkor(bo'lishsizlik) ma'noni anglatadi, agar bir vaqtda yetakchi

fe'lga ham, ko'makchi fe'lga ham qo'shilsa, bo'lishlilik - kuchli tasdiq ma'nosini bildiradi.

Misol uchun: kelmay qo'ymadi, aytilmay qolmadi, yordam bermay qo'ymadi.

Fe'l tuzilishiga ko'ra 4 xil turda bo'ladi. Sodda, qo'shma, juft hamda takroriy.

Sodda fe'llar odatda 2 xil bo'ladi:

1. *Tub sodda*. Misol uchun: yozmoq, yugurmoq, kulmoq, uxlamok, bermoq, olmoq.

2. *Yasama sodda*. Misol uchun: suhbatlashmoq, qizarmoq, qiziqitirmoq, tozalamoq, boyitmoq.

Qo'shma fe'llar odatda 2 qismdan iborat bo'ladi va qismlarning qaysi so'z turkumiga mansubligiga ko'ra 2 turga ajraladi:

1. Fe'l + fe'l ko'rinishidagi qo'shma fe'llar.

Misol uchun: sotib olmoq, olib chiqmoq, olib bormoq, ishlab chiqarmoq, chiqarib kelmoq.

2. Boshqa so'z turkumidagi so'z + fe'l. Bu qo'shma fe'lni hosil qilishda biz qil, et, ayla, bo'l, kel, ko'r, tort kabi so'zlardan foydalanamiz.

Misol uchun: azob tortmoq, fosh qilmoq, barpo etmoq, bayon qilmoq, bajonidil keltirmoq.

Juft fe'llar 2 ta fe'lning qo'shilishidan yangi bir ma'noni kelib chiqadi. Misol uchun: qo'llab-quvvatlamok, yeb-ichib, o'ynab-kulib, yuvib-tarab.

Takroriy fe'llar-bu fe'llar doimiy holatda sifatdosh yoki ravishdosh shaklida kelganda takrorlanishi mumkin.

Misol uchun: kula-kula, yig'lay-yig'lay, bora-bora, ayta-ayta.

Fe'l nisbatlari - harakat bajaruvchisining harakat va holatni bajarishda qay darajada ishtirok etishini bildirishiga nisbat shakllari deyiladi, ya'ni gap to'ldiruvchisi va fe'l o'rtasidagi munosabatni ko'rsatib beradi. 5 ta nisbat kategoriyasi mavjud:

1. Aniq nisbat.

2. O'zlik nisbat.

3. Majhul nisbat.

4. Ortirma nisbat.

5. Birgalik nisbat.

Aniq nisbatda asosan harakatning bajaruvchisi aniq ko'rsatilgan bo'ladi va shu holatga ko'ra aniq nisbat deyilishi ham mumkin.

◦ Aniq nisbatning qo'shimchasi mavjud emas va fe'l tarkibida mayl, zamon yoki shaxs-son qo'shimchalari kelishi mumkin.

◦ Aniq nisbat gapning tarkibida kesim vazifasida keladi.

◦ Tarkibida nisbat qo'shimchasini olmagan barcha fe'l aniq nisbatda bo'ladi

Misol uchun: Jamila qah-qah otib kuldi. Singlim birozdan so'ng kitobini olib o'qidi. Shamol keldi-yu, derazani qattiq ochib yubordi.

O'zlik nisbatda harakat yoki holat harakat bajaruvchisining shaxsiy o'ziga nisbatan bajariladi.

Maxsus qo'shimchalari quyidagilar: -n, -in, -l, -il.

Misol uchun: Aziza xonadan taranib chiqdi. Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda tug'ilgan. Jamol tartibsiz kiyindi.

Majhul nisbat harakat va holatning bajaruvchisi noaniq shaklda bo'ladi. Majhul nisbat ko'p holatda rasmiy uslubda foydalaniladi.

Qo'shimchalari -n, -in, -l, -il.

Misol uchun: parda ilindi, kitob o'qildi, ovqat tayyorlandi, topshiriqlar bajarildi, ishxonaga borildi.

◦ O'zlik va majhul nisbat qo'shimchalari shakldosh qo'shimchalardir. Harakat va holatning bajaruvchisi aniq yoki aniq emasligiga ko'ra bu fe'l nisbatlarini bir-biridan farqlashimiz mumkin.

Orttirma nisbat - bajaruvchining ta'siri orqali boshqa bir bajaruvchi orqali amalga oshirilgan harakat orttirma nisbatdagi fe'l bo'ladi.

Qo'shimchalari: -ar, -dir, -tir, -giz, -kiz, -qiz, -t, -ir, -iz.

Misol uchun: doskaga yozdirtirdi, sumkasidan chiqartirdi, changlarni arttirdi.

Birgalik nisbat - ikki va undan ortiq harakat bajaruvchilari tomonidan birgalikda bajarilgan harakatni ifodalaydigan fe'llar birgalik nisbatidagi fe'llardir.

Qo'shimchalari: -sh, -ish.

Misol uchun: bolalar birga o'ynashdi. Ular oilasi bilan birgalikda sayohatga chiqishdi.

Fe'llardagi *zamon* tushunchasi bevosita nutqqa bog'liq bo'ladi, ya'ni biz zamonlarni nutq so'zlanib turgan paytga nisbatan ajratib olamiz. 3 ta zamon ko'rsatkichi mavjud: o'tgan, hozirgi va kelasi zamonlar.

O'tgan zamon - nutq so'zlanib turgan paytdan oldin sodir bo'lgan harakat va holatni anglatadi. (agar bajarilgan harakat bo'lsa bo'lishli, bajarilmagan harakat bo'lsa bo'lishsiz tarkibda).

Qo'shimchalari: -di, -gan, -gan+edi

O'zbek tili grammatikasida o'tgan zamon shakli ichki ma'no turlarga ajratilgan.

1. Yaqin o'tgan zamon.
2. Uzoq o'tgan zamon shakli.
3. O'tgan zamon hikoya.
4. O'tgan zamon davom.

1. Yaqin o'tgan zamon shakli -di qo'shimchasi orqali fe'lni tuslash bilan yasaladi. U harakat va holat nutq so'zlanayotgan paytdan biroz oldin va so'zlovchining ko'z oldida sodir bo'lgan ish-harakatni ifodalaydi. Misol uchun: Mayin shabada keldi-yu, gullar beixtiyor tebrana boshladi.

2. Uzoq o'tgan zamon-nutq so'zlanayotgan paytdan ilgariroq sodir bo'lgan va natijasi hozirda ko'rinib turgan ish-harakatni ifodalaydi.

Qo'shimchasi: -gan

Misol uchun: kecha do'stim menga bir necha marta qo'ng'iroq qilgan ekan.

3. O'tgan zamon hikoya shakli biror-bir ish-harakat qisqa vaqt ichida, tusatdan sodir bo'lganini hikoya qilish mazmunini ifodalaydi va ravishdoshning -b, -ib qo'shimchalarini tushlash orqali hosil qilinadi.

Misol uchun: bugun tunda qor yog'ibdi.

4. O'tgan zamon davom shakli nutq so'zlanib turgan paytdan ancha ilgari davom etib turgan ish-harakatni ifodalaydi. Bunda ish-harakat ma'lum muddat davomida takrorlanib turgan aniq bir vaziyat tushuniladi.

Qo'shimchalari: -r, -ar, -yotgan.

Bunda ushbu qo'shimchalardan so'ng edi to'liqsiz fe'lini biriktirib tushlash orqali hosil qilinadi.

Misol uchun: O'tgan yili maktabimizda yangi kutubxona ochilgan edi.

Hozirgi zamon - harakat va holat nutq so'zlanib turgan vaqtda sodir bo'ladi

Qo'shimchalari: -a, -ay, -yap, -yotib, -yotir, -moqda.

Misol uchun: keladi, yozmoqda, borayotir

Yot, tur, o'tir, yur fe'llariga -b, -ib ravishdosh qo'shimchalarini qo'shish orqali ham hozirgi zamon shaklini yasash mumkin.

Misol uchun: yotibman, turibdi, o'tiribsan.

Kelasi zamon shakli - harakat va holat nutq so'zlanishidan keyin sodir bo'lishida, taxmin, gumon qilishda ifodalanadi.

Qo'shimchalari: -r, -ar, -moqchi, -ajak, -adigan, -ydigan.

Misol uchun: yozajak, oladigan, sotadigan, kelarman, borarsan, aytmoqchi.

XULOSA

Fe'l so'z turkumi nafaqat harakat, jarayon yoki holatni ifoda etadi, balki gapning asosiy mazmunini tashkil etadigan til tizimining asosiy unsuridir. Fe'l o'zbek tilidagi eng katta va murakkab so'z turkumi hisoblanib, uni to'g'ri qo'llay olish nutqning ravonligi, mantiqiyligini ta'minlaydi. Shu sababli fe'lni o'rganish har bir nutq so'zlovchisi uchun eng zarur bo'lgan birlikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Rahmatullayev, H O Z I R G I O' Z B E K (darslik), A D A B I Y T I L I, Toshkent "Universitet", 2006, 476 b.

2. HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI, 1, 2, 3-kitoblar, Akademik litsey va kasb-hunar kollejarining I, II, III bosqich talabajari uchun darslik Toshkent — «ILM ZIYO» — 2013, 592 b

3. Ulug‘murod Omonov, ONA TILI (MORFOLOGIYA), O‘quv qo‘llanma, “Durdona” nashriyoti, Buxoro—2021, 216 b

4.(https://www.google.com/url?q=https://uz.wikipedia.org/wiki/Fe%25CA%25BCl&sa=U&sqi=2&ved=2ahUKEwiBoKfA6rKRAxU6_7sIHQMpHh4QFnoECA4QAQ&usg=AOvVaw2tw3DLREHiUOkBp1kS63B)<https://uz.wikipedia.org>
(https://www.google.com/url?q=https://uz.wikipedia.org/wiki/Fe%25CA%25BCl&sa=U&sqi=2&ved=2ahUKEwiBoKfA6rKRAxU6_7sIHQMpHh4QFnoECA4QAQ&usg=AOvVaw2tw3DLREHiUOkBp1kS63B)

5.(https://www.google.com/url?q=https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/tilshunoslik/fe-l-so-z-turkumi&sa=U&sqi=2&ved=2ahUKEwiU0ISN67KRAxV6gP0HHcHwO8kQFnoEC4QAQ&usg=AOvVaw3JThSu7qHTRs_8cxCsFxCU) Arxiv.uz<https://arxiv.uz>
(https://www.google.com/url?q=https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/tilshunoslik/fe-l-so-z-turkumi&sa=U&sqi=2&ved=2ahUKEwiU0ISN67KRAxV6gP0HHcHwO8kQFnoEC4QAQ&usg=AOvVaw3JThSu7qHTRs_8cxCsFxCU)

6.(https://www.google.com/url?q=https://www.scribd.com/document/893542138/Fe-l-So-z-Turkumi-Qo-Llanma&sa=U&sqi=2&ved=2ahUKEwj-8PnS7bKRAxWQ87sIHV5dPNIQFnoECHsQAQ&usg=AOvVaw3gwSl_dVfutO9QP76NKjmF)<https://www.scribd.com>
(https://www.google.com/url?q=https://www.scribd.com/document/893542138/Fe-l-So-z-Turkumi-Qo-Llanma&sa=U&sqi=2&ved=2ahUKEwj-8PnS7bKRAxWQ87sIHV5dPNIQFnoECHsQAQ&usg=AOvVaw3gwSl_dVfutO9QP76NKjmF)

7. Qizi, S. M. O. (2021). FE’L SO’Z TURKUMI VA UNING LEKSIK–SEMANTIK TASNIFI. Oriental Art and Culture, (6), 187-191.